

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYODA SANOAT SOHASI RIVOJLANISHI

Feruza Rajabaliyevna Mallayeva
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlatimiz mustaqilikka erishganidan so`ng Qashqadaryo viloyatida sanoat sohasi dinamikasi tahlil etilgan. Ayrim yo`nalishlar bo`yicha statistik ma`lumotlar asosida iqtisodiy jarayonlar muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: Sanoat, Qashqadaryo, islohot, yengil sanoat, ishlab chiqarish.

KIRISH

O`zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining zanjirsimon indekslarini solishtirish natijalari viloyat sanoat ishlab chiqarishining o`ziga xosligi bilan bog`lik muayyan tendensiyalarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida (1991-1995 yillar) O`zbekiston Respublikasi yalpi sanoat mahsuloti o`sish sur'atlariga nisbatan viloyat kursatkichlari ancha yuqori bo`lgan. Ikkinci bosqichda esa aks tendensiya kuzatiladi, ya'ni respublikamizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlari Qashqadaryo sanoati o`sish sur'atlariga nisbatan yuqori. Boshqacha kilib aytganda Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish boshlangan davrda respublikamizda sanoat ishlab chiqarish hajmi pasaygan bo`lsa. Qashqadaryo da yuqori sur'atlarda o`sgan. Iqtisodiy barqarorlikka erishilgan 1996 yildan boshlab esa viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlari pasaygan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Respublika sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishiga nisbatan bunday aks tendensiyaning xosil bo`lishi Qashqadaryo viloyati sanoatining tarmoq tarkibi bilan bog`liq. Viloyat sanoatining asosini yokilgi sanoati tashkil etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sanoat siyosatining birinchi bosqichida respublikamiz sanoat tarkibida yuqori ulushga ega bo`lgan mashinasozlik, yengil sanoat, metallurgiya sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi pasaydi. Ayniqsa, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarida pasayish sur'atlari yuqori bo`ldi. Bo`larning barchasi Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlarining respublika darajasidan yuqori

bo`lishini ta'minladi. Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida esa yokilgi resurslari ishlab chiqarish muayyan darajada barqarorlashdi. Viloyat sanoatining ushbu tarmoqqa yuqori darajada bog`liqligi va boshqa sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining kamayishi viloyat sanoat tarmogida o`sish sur'atlarining pasayishiga olib keldi. Bundan tashqari viloyatda Iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy etish sur'atlarining pastligi, xorijiy investisiyalar jalb etishning talab darajasida emasligi, mavjud Iqtisodiy resurslardan maqsadga muvofiq foydalanilmayotganligi ham sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlariga salbiy ta'sir ko`rsatdi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichida respublikamizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlari o`sdi. Bu eng avvalo import o`rnini bosish va eksportga yo`naltirilgan Iqtisodiy strategiyaga muvofiq sanoat mahsulotlari va ishlab chiqarishning yangi turlarini o`zlashtirish, xorijiy investisiyalarni jalb etishni faollashtirish kabi omillarga bog`liq. Bu chora-tadbirlarning natijasi o`laroq respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlari viloyat ko`rsatkichidan yuqori bo`ldi. Mustakillik yillarida viloyat sanoatining tarmoq tarkibila muayyan o`zgarishlar yuz berdi. Bu o`zgarishlar kup jixatdan mamlakatimiz xukumati tomonidan tanlangan Iqtisodiy siyosat, bozor munosabatlarining joriy etilishi va ichki sanoat salohiyatidan foydalanish darajasi bilan tushuntiriladi

Yalpi sanoat mahsulotida yoqilgi-energetika tarmog`i ulushining o`sishi asosiy fondlar va sanoat ishchilarini ulushining o`sishiga nisbatan yuqoriqoq bo`lganligi tarmoqda mehnat unumdarligi o`sganligini bildiradi.

Qashqadaryo viloyatining respublika yoqilgi-energetika majmuasida alohida urin egallashini qayd etish lozim. Bugungi kunda respublikamizda qazib olinayotgan tabiiy gaz, gaz kondensati va neftning aksariyat qismi Qashqadaryo viloyati hissasiga tugri keladi. U Viloyat sanoatining tarmoq tarkibida og`ir sanoatning Boshqa tarmoqlari ulushi nihoyatd past. Buning ustiga ularning ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo`lmoqda. Mustakillik yillarida yoqilgi-energetika majmuasidan boshqa ogir sanoat tarmoqlarining yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi 7,2 foizdan 5,5 foizga pasaydi. Agar 1991 yilda bu tarmoqlarning jami asosiy fondlardagi ulushi 9,4 foizga, sanoat ishchilaridagi ulushi 33,9 foizga teng bo`lgan bo`lsa, 2019 yilga selib bu ko`rsatkichlar muvofiq ravishda 1,7 va 26.0 foizga teng bo`ldi, xolos¹. Bu shundan dalolat beradiki, yoqilgi-energetika majmuasidan boshqa og`ir sanoat tarmoqlarining asosiy fondlar bilan ta'minlanishi, fond qaytimi va ularda band bo`lgan ishchilar soni qisqargan, mehnat unumdarligi pasaygan.


¹ www.stat.uz ma`lumotlari

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotlari²

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Qum, ming t.	49,4	44,4	-5,0
Neft, ming t.	10,5	13,8	2,5
Tabiiy gaz, mln.kub.m.	523,1	1267,2	744,1
Gaz kondensati, ming t.	109,4	142,1	131,7
Chaqiq tosh, ming t.	56,6	60,6	4,0

O’tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining ulushi 0,1 % ni (2019-yil yanvar-iyun oylarida – 0,1 %), o’rta-yuqori texnologiyali – 32,8 % (27,4 %), o’rta – quyi texnologiyali – 3,7 % (6,6 %), va quyi texnologiyali – 63,4 % (65,9 %) tashkil etdi.



1-rasm. Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

² Savdo sanoat palatasi ma'lumotlari

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, Qashqadaryo viloyati sanoati Respublikaning eng asosiy sanoat zonalaridan biri hisoblanadi. Kelajakda bu sohani rivojlantirish orqali nafaqat Qashqadaryo viloyatini, balki Respublika mavqeini yanada mustahkamlash mumkin.

REFERENCES

1. Nabiev E.Kayumov A. "O`zbekistonning Iqtisodiy saloxiyati". T. Akademiya-2019.- 106-6.
2. A.S. Soliev va Boshqalar "Mintakaviy Iqtisodiyot" T. Universitet 2013. 6-7 bet.
3. Kayumov L.A. Nazarov X.M. Egamberdiev F.T "Mintakaviy Iqtisodiyot" T. Universitet. 2014. 4-6.
4. "Erkin Iqtisodiy zonalar tugrpspda" gp O`zbekiston respublikasining konuni. O`zbekistonning yangi kopunlari. №13. T. Adolat. 2000. 40-6.
5. Abdusalya.mov M. Alimov A.. Musienko I. Proizvoditelne sil i sovershenstvovanie ekonomiceskix svyazey O`zbekistana. — G.. Fan. 1987.-140 s.
6. www.stat.uz
7. Savdo sanoat palatasi ma`lumotlari.